



БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИНИНГ БО'ЛАЖАК РАҲБАР-ПЕДАГОГЛАРИНИ ИЈОДИЙ ВА КАСБИЙ САЛОҲИЯТИНИ РИВОЈЛАНТИРИШ

Salimova D.F.

Alfraganus Universiteti p.f.b.f.d.(PhD)

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, rahbar, pedagog, intellektual, kreativ, ijodiy qobiliyat, ta'lim-tarbiya, tashkilotchi, ijodkor, tarbiyalanuvchi.

Ключевые слова: дошкольное образование, руководитель, педагог, интеллектуальные, творческие, творческие способности, образование, организатор, творец, воспитанник.

Key words: preschool education, leader, teacher, intellectual, creative, creative abilities, education, organizer, creator, student.

Резюме:

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bo'lajak rahbar-pedagoglarini professional tayyorgarligi, ijodiy va intellektual salohiyati, kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning asosi ekanligi yoritilgan.

Резюме:

В данной статье объясняется, что развитие профессиональной подготовки, творческого и интеллектуального потенциала, творческой компетентности будущих руководителей-педагогов дошкольных образовательных организаций является основой современной педагогики.

Summary:

This article explains that the development of professional training, creative and intellectual potential, and creative competence of future teacher leaders of preschool educational organizations is the basis of modern pedagogy.

Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish borasida qator islohotlarni amalga oshirish, xorijiy tajribalarning ilg'or texnologiyalarini hisobga olgan holda barcha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun ta'lim sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlarini amaliyotga joriy qilish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bo'lajak rahbar-pedagoglarini professional tayyorgarligi va malakasini oshirib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbar-pedagoglarining ijodkorligini mavjudligi ta'lim-tarbiya jarayonini kreativlikning o'ziga xos jihatlari faoliyati davomida amalda qo'llay olishi hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq eta olishi bilan belgilanadi. Bu borada, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarorda ham "Ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun ta'lim sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish zarur" deb alohida uqtirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasi tasdiqlandi va unda quyidagilar nazarda tutilgan:

- √ maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- √ maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- √ bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- √ maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- √ maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- √ maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;
- √ maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash;

Ushbu qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish, dunyoqarashi keng va ijodiy qobilayti rivojlangan rahbar-pedagoglarni tizimga jalb qilish maqsadida, qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari



imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish” kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan.

Bunga muvofiq yurtimiz oliygohlarida maktabgacha ta‘lim tashkilotining bo‘lajak rahbarlarini interfaol o‘qitish metodlari asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqdi.

Bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbarlarini individual kasbiy rivojlantirish, uning ma‘naviy, ijodiy va kreativlik salohiyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish, oliy ta‘lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tegishli tarzda modernizatsiya qilish zarurligini belgilab berdi. Bugungi kunda ta‘lim tizimini modernizatsiyalash va mazmunan takomillashtirish orqali bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tashkilotining rahbarlarini ijodiy va kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning asosini tashkil etmoqda.

Shunday ekan, oliy ta‘lim muassasasi maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvning joriy etilishi ta‘lim mazmuniga, o‘qitish shakliga, usullariga, pedagogik texnologiyalariga, ta‘lim va tarbiya jarayonida amaliyot davrining mukammal tashkil etilishiga, talabalar va maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbar-pedagogolari orasidagi munosabatlarida yangiliklar va o‘zgarishlar kiritishni talab etadi.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta‘lim tizimida e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan vaziyat bu maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbar-pedagoglarining kasbiy yetukligi bilan birga ijodiy va kreativ kompetentligini rivojlantirishdir. Buning uchun rahbar-pedagoglar shaxsiga qo‘yiladigan talab - eng avvalo o‘z ustida izlanishi, yangiliklarni joriy qila olishi, xorijiy tajribalarni o‘rganib borishidir. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbar-pedagoglarining kasbiy yetukligi va ijodiy yondashuvga egaligi ta‘lim jarayoni sifatini oshirishga, kasbiy masuliyatini samarali anglashga, ta‘lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashishga, doimiy ravishda malakasini oshirib borishga yordam beradi. Shuningdek, rahbar-pedagogning kreativligi vaziyatarni tahlil qilishga, ilmiy nuqtai nazardan ijodiy yondashuvi tarbiyalanuvchhilarni har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga yordam beradi. Bu esa o‘z-o‘zidan shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak rahbar-pedagoglarni tayyorlayotgan oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayoniga mazmunan va shaklan yangiliklar kiritishni, ta‘lim jarayoniga ijodiy yondashuvlarni olib kirishni, ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llashni taqozo etadi. Natijada oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni kasbiga bo‘lgan qiziqishlari va o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarini ortishiga sabab bo‘ladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotining rahbar-pedagoglari faoliyati davomida o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Buning uchun ularning ijodkorlik qobiliyatlari ma‘lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlashi, xorijiy tajribalarni o‘rganishi orqali shakillantiriladi va asta-sekinlik bilan takomillashib, rivojlanib



boradi. Ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini anglash uchun dastlab “ijodkorlik” tushunchasining ma’nosini tushunib olish talab etiladi.

Ijodkorlik - muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasidir. Ijodkor shaxs esa - ijodiy jarayonni muvofaqiyatli amalga oshira oldigan hamda aniq ijodiy natijalarga ega shaxs hisoblanadi. Rahbar-pedagoglar o’z oldiga mavjud muammoli masalalarni qo’yishi orqali bilimlari va hayotiy tajribalarini o’z ustilarida ishlashi hamda mustaqil o’qib o’rganishlari natijasida shakllantiradilar. Hozirgi kunda ularga qo’yilayotgan zamonaviy talablar ham shundan iboratki, u axborot tashuvchi emas, balki tarbiyalunchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda yondoshadigan tashkilotchi, maslahatchi hamda boshqaruvchi bo’lishi zarur.

Shu o’rinda ta’kidlash joizki, har bir shaxs tabiatan ijodkor va kreativlik qobiliyatiga ega. Ammo bu qobiliyatni amaliyotga to’g’ri joriy qilish har kimning ham qo’lidan kelmaydi. Kreativ qobiliyatini qanday aks ettirish mumkin degan savol tug’iladi. Bu borada Patti Drapeau shunday maslahat beradi: “Agar o’zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo’lganingiz yoki bo’lmaganingizda emas, balki mashg’ulotlarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g’oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki P. Drapeau nuqtaiy nazariga ko’ra ijodiy va kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, rahbar-pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish orqali to’liq bo’lmagan tushunchalari, yetarlicha asoslantirilgan va talim-tarbiya jarayoniga yo’naltirilgan ijodkorona harakatlari, mavhum bo’lmagan kreativ g’oyalari, individual hissiyotlari yanada yuqori bosqichga ko’tariladi. Bunday holatda ijodiy qobiliyatlarini shakllanishi osonlashadi va ularda kreativ o’zgarishlar dinamikasi yuqori darajada aks etadi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ 2707 sonli qarori
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4312-son Qarori.
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p.4.
5. Ibragimova G. Bo’lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislari kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimi. Avtoref. p.f.d.(DSc).-T.:2021